



IXTISOSLASHTIRILGAN TA'LIM MUASSASALARI AGENTLIGI MAKTABLARIGA QABUL IMTIHONI MATERIALLARI SPETSIFIKATSIYASI

BIOLOGIYA

9-SINF

2025/2026-o'quv yili

I. Ixtisoslashtirilgan maktablarga qabul imtihonlarini o'tkazishdan maqsad

O'quvchilarning biologiya fanidan bilim darajasini aniqlash, xulosa chiqarish, qaror qabul qilish ko'nikmalarini tekshirish hamda munosib o'quvchilarni tanlash.

II. Qabul imtihoni variantining tuzilishi

Imtihon savollarining har bir varianti kognitiv darajasi bilish, qo'llash, mulohaza qilish bo'lgan 10 ta bitta muqobil javobga ega bo'lgan 10 ta test topshiriqlaridan iborat.

Test topshiriqlari umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6- sinf Tabiiy fan, 7-8-sinf biologiya fani o'quv dasturlari asosida tuziladi. Test topshiriqlari, tabiiy fan, biologiya fanining quyidagi bo'limlarni qamrab oladi:

1- jadval

№	Bo'limlar	Topshiriqlar soni
1	Tirik organizmlarning xilma-xilligi	1
2	Tiriklikning molekula, hujayra va to'qima darajasi. Organ va organlar sistemasi	1
3	Tirik organizmlarda koordinatsiya va o'z-o'zini boshqarish	1
4	Tirik organizmlarda ta'sirlanish va harakatlanish	1
5	Tirik organizmlarda oziqlanish	1
6	Tirik organizmlarda nafas olish	1
7	Tirik organizmlarda moddalar transporti	1
8	Tirik organizmlarda ayirish (ekskretsiya)	1
9	Tirik organizmlarda reproduksiya, o'sish va rivojlanish	1
10	Tur, populyatsiya, ekosistema, biosfera	1

Biologiya fani yo'nalishida saralash testi topshiriqlarining kognitiv darajalar bo'yicha taqsimoti

Shuningdek, imtihon savollari uchta kognitiv darajada mos tuzilgan: (2-jadval)

Bilish;

Qo'llash;

Mulohaza.

2- jadval

Kognitiv daraja		Konstrukt	Topshiriq soni
B	Bilish va tushunish	O'quvchining asosiy tushuncha, atama va ilmiy dalillarni eslab qolish, tanish va izohlash ko'nikmalari baholanadi: fanlarga oid asosiy tushunchalarni to'g'ri anglash; hodisa va jarayonlarning nomi va xususiyatlarini eslab qolish; darslik, laboratoriya tajribasi yoki grafik materiallar asosida dalillarni aniqlash.	2 (20%)
Q	Qo'llash	O'quvchining o'zlashtirilgan bilim va tushunchalarni yangi holatlarga moslashtirish, amaliy vaziyatlarda qo'llash ko'nikmalari baholanadi: grafik, jadval, sxema, xarita va diagrammalar asosida tahlil qilish; ilmiy qonuniyatlarni amaliy masalalarda qo'llash; tajriba natijalarini tushunish va xulosa chiqarish.	5 (50%)
M	Mulohaza	O'quvchining o'z fikrini asoslash, tahlil qilish, taqqoslash va umumlashtirish orqali chuqur mulohaza yuritish ko'nikmalari baholanadi: hodisalar orasidagi sabab-oqibat aloqalarini aniqlash; o'z fikrini dalillar asosida bayon etish; turli jarayon, modda yoki hodisalarni taqqoslab, ilmiy asoslangan farq va o'xshashliklarni ko'rsatish; o'z qarashini mustaqil tarzda bildirish.	3 (30%)

3- jadval

Nº	Bo'limlar	Bilish	Qo'llash	Mulohaza
1	Tirik organizmlarning xilma-xilligi	1		
2	Tiriklikning molekula, hujayra va to'qima darajasi. Organ va organlar sistemasi		1	
3	Tirik organizmlarda koordinatsiya va o'z-o'zini boshqarish		1	
4	Tirik organizmlarda ta'sirlanish va harakatlanish			1
5	Tirik organizmlarda oziqlanish		1	
6	Tirik organizmlarda nafas olish		1	
7	Tirik organizmlarda moddalar transporti			1
8	Tirik organizmlarda ayirish (ekskretsiya)	1		
9	Tirik organizmlarda reproduksiya, o'sish va rivojlanish		1	
10	Tur, populyatsiya, ekosistema, biosfera			1
Jami		2	5	3

4- jadval
Topshiriqlarda baholanadigan ko'nikmalar

Nº	Bo'lim	Komponentlari	Ko'nikma
1	Tirik organizmlarning xilma-xilligi	Bakteriyalar. Protoktistalar. Zamburug'lar	Tirik organizmlarning xilma-xilligi hujayraviy tuzilmalarni taqqoslaydi, ular orasidagi umumiylik va farqlarni tahlil qila oladi, tirik organizmlar tasnifidagi o'rnini ajratadi, moslashuv xususiyatlarini farqlaydi, biologik xilma-xillikning kamayishi tufayli kelib chiqadigan ekologik muammolarni baholaydi.
		O'simliklar dunyosi	
		Hayvonot dunyosi	
2	Tiriklikning molekula, hujayra va to'qima darajasi. Organ va organlar sistemasi	Hujayra va uning tuzilishi	Tiriklikning tuzilish darajasi birliklari farqlarini ajratadi, tarkibiy qismlarini o'xshash va farqli jihatlarini ajratadi, rasm, model yoki sxema asosida taqqoslaydi, funksiyasini va xususiyatlariga doir keltirilgan misollarni tushunadi, tizimlarining bir-biri bilan bog'liqligini va ularning o'zaro ta'sirini, tashqi muhit omillarining tiriklik tuzilish darjalariga ta'sirini farqlaydi.
		To'qimalar va uning turlari	
		O'simliklarning vegetativ va generativ organlari	
		Odam va hayvonlarning organlari va organlar sistemasi	
3	Tirik organizmlarda koordinatsiya va o'z-o'zini boshqarish	Tirik organizmlarning o'z-o'zini boshqarish	Tirik organizmlarda koordinatsiyani ta'minlaydigan asosiy boshqaruv tizimlarini farqlay oladi, bu tizimlar bajaradigan asosiy funksiyani, turli vaziyatlarda ishtirok etadigan boshqaruv tizimlari qismlarini taqqoslaydi, hayvon yoki odamdagi nerv va endokrin tizimlar orqali boshqariladigan jarayonlarni amaliy misollar asosida ajratadi, taqqoslaydi.
		Umurtqali va umurtqasiz hayvonlarning nerv sistemasi	
		Odam nerv sistemasi	
4	Tirik organizmlarda ta'sirlanish va harakatlanish	Tirik organizmlar ta'sirlanishi (reflekslar)	Nerv tizimi asosiy qismlarini asosiy funksional birligini, ishlash tizimini farqlaydi, asosiy vazifalarini taqqoslaydi, markaziy va periferik qism o'rtasidagi vazifalar taqsimotini tahlil qiladi, nerv tizimining buzilishining organizmga ko'rsatadigan ta'sirlarini, boshqa tizimlari bilan o'zaro bog'liqligini baholaydi va izohlaydi.
		O'simliklardagi fototropizm, fotonastiya, geotropizm hodisalari	
		Umurtqasizlarning harakatlanish organlari	
		Umurtqalilarning tayanch-harakat organlari	
		Tirik organizmlarning ta'sirlanish (reflekslar)	
5	Tirik organizmlarda oziqlanish	Organizmlarning oziqlanishi	Oziqlanish tushunchasini va uning tirik organizmlar hayotidagi ahamiyatini, oziqlanish turlarini farqlaydi,

		O'simliklarning oziqlanishi	oziqlanish turlariga doir hayotiy misollarni ajrata oladi, oziqlanish tizimining turli organizmlardagi o'zaro farqlarini taqqoslaydi. Hayvonlarning hazm qilish tizimi va o'simliklarning oziqlanish usullarini farqlaydi, organizmlarning oziqlanish usullarining turli muhitlarga moslashishini tahlil qiladi.
		Hayvonlarning oziqlanishi	
		Odamning ovqat hazm qilish sistemasi	
		Ratsional ovqatlanish	
6	Tirik organizmlarda nafas olish	O'simliklarning nafas olishi	Organizmlar uchun nafas olish jarayonining mohiyatini, hujayra ichida gazlar va moddalar almashinuvini amalga oshirishini ketma-ketligini aniqlaydi, nafas olish va fotosintez jarayonlarining farqlarini ajratadi, taqqoslaydi va ularning hayotiy ahamiyatini, nafas olish jarayonining buzilishi organizmlar rivojlanishiga va o'sishiga ta'sir qilishini tahlil qiladi, nafas olish tizimi faoliyatining sog'lom turmush tarzidagi o'rnini baholaydi.
		Hayvonlarning nafas olishi	
		Odamning nafas olish sistemasi	
7	Tirik organizmlarda moddalar transporti	O'simliklarda moddalar transporti	O'simliklarda suv va minerallar transportini, o'tkazuvchi to'qimalarning vazifalari, tuzilishini tushunadi va o'simliklarda moddalar transportining ahamiyatini tahlil qiladi, uni hayot faoliyatiga doir misollarni ajrata oladi, Organizmlarning qon aylanish sistemasining asosiy qismlari va ularning vazifalarini farqlaydi, organizmdagi moddalar transportidagi qon aylanish tizimining farqlarini taqqoslaydi, qon aylanish tizimi buzilishi holatlarining oqibatlarini aniqlaydi, qon aylanish tizimidagi muammolar organizm faoliyatiga ta'sirini baholaydi va xulosa chiqadi.
		Umurtqasizlar qon aylanish sistemasi	
		Umurtqalilar qon aylanish sistemasi	
		Odam qon aylanish sistemasi	
8	Tirik organizmlarda ayirish (ekskretsia)	O'simliklarda ayirish	Asosiy ayirish organlari va ularning vazifalarini ortiqcha suv va moddalarning chiqarilishini tushunadi va ayirish jarayonining atrof-muhitga ta'sirini tahlil qiladi. Odam organizmida ayirish tizimining asosiy a'zolari va ularning joylashuvini farqlaydi, ayirish jarayonida ishtirok etuvchi asosiy moddalarni taqqoslaydi, ayirish jarayonining organizmdagi rolini mulohaza qiladi, ekskretsia tizimi buzilishi oqibatlarni baholaydi.
		Hayvonlarning ayirish sistemasi	
		Odam organizmning ayirish sistemasi	
9	Tirik organizmlarda reproduksiya, o'sish va rivojlanish	Organizmlarning ko'payishi	Organizmning ko'payishi turlarini, jinsiy va jinsiz ko'payish mexanizmlarini, o'ziga xos xususiyatlarini farqlaydi, o'simliklarda vegetativ ko'payish mexanizmlarini taqqoslaydi. Hayvonlarda jinsiy ko'payishning asosiy jarayonlarini ajratadi, gametalar hosil bo'lish mexanizmlarini, organizmlarda embrional rivojlanish jarayonlarini, hayotiy siklini va bosqichlaridagi o'zgarishini ajratadi, reproduktiv tizimi va gormonlar rolini farqlaydi, o'zgarishlarni ta'sirini baholaydi.
		O'simliklarning vegetativ va jinsiy ko'payishi	
		O'simliklarning individual rivojlanishi	
		Hayvonlarning ko'payishi va ularning individual rivojlanishi	
10	Tur, populyatsiya, ekosistema, biosfera	Tur, populyatsiya	Tur, populyatsiya, ekologik omillar, ekosistemalar va biosfera kabi biologik tushunchalarni organizmlar va

		Ekologik omillar	ekologik tizimlar o'rtasidagi aloqalarni, o'xshashliklarni, genetik aloqalar va biologik xilma-xillikni farqlaydi, populyatsiyalarning soni, o'sishi, kamayishi va mutatsiyalarni tahlil qiladi. Ekologik omillar va ularning tirik organizmlar uchun ahamiyatini, tirik organizmlar orasidagi o'zaro ta'sirlarni farqlaydi, biosferadagi ekologik o'zgarishlarni, iqlim o'zgarishlari va inson faoliyatining biosferaga ta'sirini baholaydi, oqibatlarini bashorat qiladi.
		Tirik organizmlarning tashqi muhitga moslashishi	
		Ekosistemalar. Biosfera	
		Oziq zanjiri va oziq to'ri	
		Ekosistemalarda energiya oqimi	

Javoblar varaqasini to'ldirish shartlari:

Test topshiriqlarida javob variantlarining faqat bittasi tanlanadi, ikki va undan ortiq tanlangan javoblar uchun ball berilmaydi.

Spetsifikatsiyada ko'rsatilgan mavzular quyidagi adabiyotlardan olingan:

1. Tabiiy fanlar: 6- sinfi uchun darslik, K. T. Suyarov, Z. B. Sangirova, M. T. Umaraliyeva, S. G'. Xasanova, M. K. Yuldasheva, D. T. Hasanova – Toshkent "O'zbekiston", 2021- nashri. Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022.
2. Biologiya: 7- sinfi uchun darslik, K. Saparov, I. Azimov, M. Umaraliyeva, Z. Tillayeva, I. Abduraxmanova, U. Raxmatov, S. Haytbayeva, M. Bo'ronboyeva 1- nashri. Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022
3. Biologiya (Odam va uning salomatligi) 8- sinfi uchun darslik O. Mavlonov. T. Tilavov B. Aminov O'qituvchi nashriyot Matbaa ijodiy uyi Toshkent 2019